



ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Asatov To‘rabek Xakim o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda Abdulla Avloniyning ilk maktab darsliklarida pedagogik qarashlari, uning yaratilish tarixi va poydevori uchun asos bo‘luvchi buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning ijodi, uning bu yo‘lda olib borgan ilmiy izlanishlari, xususan “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi darslik va qo‘llanmalarida yosh avlodni tarbiyalash borasidagi qarashlari aks etgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, tarbiya, ma‘naviyat, ilm, ma‘rifat, pedagogika, adabiyot, renessans, mustaqillik, rivojlanish, jamiyat.

Abstract: In the article, Abdulla Avloni's first school in Uzbekistan for pedagogical views in textbooks, history of its creation and foundation The creation of the great thinker Abdulla Avloni, who is the founder of this path his scientific researches, in particular "Literature or National Poems", "Turkish textbooks such as Gulistan or Ethics", "The First Teacher", "The Second Teacher" and their views on educating the young generation are reflected in their manuals.

Key words: education, training, spirituality, science, enlightenment, pedagogy, literature, renaissance, independence, development, society.

Kitobsiz taraqqiyotga,yuksak ma‘naviyatga erishib bo‘lmaydi.
Kitob o‘qimagan odamning ham,millatning ham kelajagi yo‘q.

Shavkat Mirziyoyev



Tarbiya bu shunchaki oddiy bir ish emas, balki farzand tarbiyasi, xulq- atvori jamiyat hayoti, shuningdek, xalqimiz qadriyatlarida yuksak darajaga ega bo'lgan mas'uliyatli hamda ijtimoiy mavqega yetgan ishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, namunali tarbiya har qanday jamiyatni yuksaklikka, ma'nau yetuklikka chorlaydi. Darvoqe, Avloniy bobomiz ta'kidlaganidek, "... tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat maslasidir" .

Abdulla Avloniy tarbiya borasida ko'plab qarashlarga ega bo'lgan. Masalan, inson tarbiyasini bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Inson, eng avvalo, jismonan sog'lom bo'lsa, bema'lol fikrlay oladi. Ma'nau boylik jismonan sog'lomlik bilan uzviy bog'liqdir, albatta. Avloniy ta'lim bilan birgalikda tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratgan .

Fikr tarbiyasi insonni yuksak dunyoqarash shakllanishiga hamda komillikka erishishga yordamchi demak. Inson aqliy yuksaklikka, albatta, fikr tarbiyasi orqali erishadi. Har qanday ma'naviy yutuqlar, barkamollik, sharofat bularning bari aqliy butunlik orqali demakdir. Bu shuningdek yomonliklardan, illatlardan saqlovchi hamda botqoqliklardan asraguvchi mash'al hisoblanadi.

Abdulla Avloniy asarining "Yaxshi xulqlar" bobida farosat, diyonat, nazorat, islomiyat, g'ayrat, qanoat, shijoat, intizom, sabr ilmi, vijdon, vatanni sevmok hislari to'g'risida atroflicha fikr yuritadi. O'z qarashlarini diniy kitoblar, hadislar, Qur'oni karim oyatlari orqali dalillab berishga harakat qiladi.

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lashini bevosita insonni ulug'lash bilan bog'laydi. Chunki Alloh inson zotini hammadan farqli qilib ongli ravishda yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek baxtni taqdim etdi. Odamzod shu aql orqali dunyoni egallaydi, yuksak natijalarga erishadi, shuningdek, misli ko'rilmagan kashfiyotlar ila dunyoni larzaga soladi. Mana Avloniy bunga qanday ta'rif bergan:" Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir... Janobi Haq insonni



hayvondan soʻz va aql ila ayrilishdir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollahu alayhi vassallam afandimiz:” Ey insonlar, aqlingizga tavoze qilingiz. Siz Janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz”, demishlar”.

XIX asrning 90-yillarida rus-tuzum maktabida oʻqiydiganlar uchun S.M.Gromeniskiyning uch kitobdan iborat “Oʻqish kitobi” asari darslik sifatida nashrdan chiqarilgan . Bu kitobda rus xalqi, uning qarashlari ,anʼanalari urf-odatlarini milliy qadriyatlari aks ettirilib, ulugʻlangan edi. Keyinchalik esa oʻzbek farzandlari qalbida vatanparvarlik, millatsevarlik hislarini uygʻotish , vatanni sevishtirish singdirish maqsadida bir qancha pedagoglarimiz ,shu jumladan, Abdulla Avloniy ham turli xil oʻquv qoʻllanmalar yaratdi. Jumladan, “Turkiy guliston yoxud axloq” asari undagi “Vatanni suymak” hikoyasiga ozgina toʻxtalsak, asarda vatanni koʻz qorachigʻidek asrash, uni sevishtirish, xizmatiga mardona bel bogʻlash kabi vatanparvarlik hislari singdirilgan, albatta.

Abdulla Avloniy bobomiz shu davrda ,shuningdek, tilimizga ham alohida eʼtibor qaratgan. “ Har bir millatning dunyoda borligʻin koʻrsatadigan oʻyin hayot til va adabiyotidir”.

Muallif fikricha, har bir oʻquvchi oʻz ona tilida oʻz fikrini bemalol erkin bayon qila olishi hamda chiroyli nutq irod etishi lozim boʻlgan. Muallif quruq ,quloqqa yoqmas soʻzlar soʻzlaydiganlarni “saodati adabiyadan mahrum, hayoti jovidonimiz uchun masxum boʻlgan axloqi zamimlar”,– deb ataydi. Abdulla Avloniy Imom Shofeʼi hazratlarining soʻzlarini keltirar ekan,” Qilich va nayza ila hosil boʻlmagan koʻp ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil boʻlur. Gʻazab zarari egasiga qaytur”. Bu soʻz orqali ijodkor har qanday mushkul holatdan ham bir ogʻiz shirin soʻz bilan chiqib olish , ammo gʻazab egasi oʻziga zarar qilishi mumkinligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda , har qaysi zamonda ham xalqqa maʼnan taʼsir etuvchi zamonasining yetuk kamolot egalari kerak, albatta . Abdulla Avloniy bobomiz ham xalq deya kuyingan millatparvar zot demakdir. Uning pedagogik qarashlari hali hanuz biz uchun



dasturulamal sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ibrati soʻzlari esa qalblarimizda vatanni sevishga, unga sodiq xizmat qilishga daʼvat etmoqda. Shunday ekan, hamisha ziyo maskanidan chanqogʻimizni qondiraylik.

Avloniy bobomiz ham koʻpincha farzand tarbiyasi hamda uning dunyoqarashiga alohida eʼtibor qaratganlar. Eng muhimi, bugungi kunda ham bu masala yuqori darajada hamda eʼtiborda. Yurtboshimiz bor ekan, biz doimo yuksalamiz va maʼnan yetuklik darajasiga yetishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida”. // Prezident Farmoni. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz.Toshkent - 2017, “Oʻzbekiston”, 593 b.
3. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq.Toshkent:Oʻzbekiston 1998.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston,yohud axloq.T.,2008.
5. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. T Maʼnaviyat 2004.
6. R.Barakeav. Oʻzbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi.T.Adabiyot nashryoti,1998.
7. B.Qosimov, U.Dolimov. Sharafli hayot. T., Gʻ.Gʻulom nashriyoti, 1987 120.
8. X.Avlonova “Dadam haqida”.T.Oʻqituvchi 1986